

“O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyati Yagona aksiyadorining
3 - sonli qarori

2026-yil “31” iyul

Toshkent shahri

“O‘zenergosotish” AJ tomonidan chiqarilgan va joylashtirilgan ovoz beruvchi oddiy aksiyalar 176 592 donani tashkil etadi.

“O‘zenergosotish” AJning barcha ovoz beruvchi aksiyalari O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiyot va moliya vazirligiga tegishli bo‘lib, ushbu vazirlik Jamiyatning Yagona aksiyadori hisoblanadi.

Ushbu qaror “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 58-moddasiga asosan quyidagi masala yuzasidan qabul qilindi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlari asosida “O‘zenergosotish” AJning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.

Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan:

Jamiyatning Yagona aksiyadori - Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2026-yil 2-martdagi 07/4825-sonli xati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 25-fevraldagi PQ-74-sonli qarori ilovasining 2-bandiga binoan ustav fondida (kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan korxona rahbarining axborot texnologiyalari va sun‘iy intellektni joriy etish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimini kiritish masalasini Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisida ko‘rib chiqib, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishiga kiritish so‘ralgan.

Boshqaruv raisining moliya, transformatsiya va xususiylashtirish bo‘yicha birinchi o‘rinbosari lavozimini Boshqaruv raisining moliya, transformatsiya va xususiylashtirish, axborot texnologiyalari va sun‘iy intellektni joriy etish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari lavozimiga o‘zgartirishni nazarda tutuvchi “O‘zenergosotish” AJning yangi tashkiliy tuzilmasi loyihasi ishlab chiqildi.

O‘z navbatida, “O‘zenergosotish” AJ Kuzatuv kengashining 2026-yil 7-iyuldagi 4-sonli majlisida Jamiyatning Yangi tashkiliy tuzilmasi loyihasi ma‘qullangan va tasdiqlash uchun Jamiyatning Yagona aksiyadoriga kiritish yuzasidan qaror qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida qayd etib o‘tilgan qarori ijrosini ta‘minlash va “O‘zenergosotish” AJda zamonaviy boshqaruv tendensiyalarini joriy qilish maqsadida, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 59-moddasiga muvofiq kun tartibidagi masala yuzasidan Jamiyatning Yagona aksiyadori **qaror qiladi:**

1. “O‘zenergosotish” AJning yangi tashkiliy tuzilmasi mazkur Qarorning ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Jamiyat Boshqaruv raisi zimmasiga yuklatilsin.

O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vaziri o‘rinbosari

 **X. Mustafayev**

